

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo

akademik litseyi huquq

fani o'qituvchisi 93-769-95-89

Farhod.yangiboyev@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy davlat qurishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rnini kattaligi va buning uchun avvalo har bir shaxsning huquqiy immunitetini, huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilash masalalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat, huquq, qonun, huquqiyong, huquqiy madaniyat, partiya, shaxs, farmon, jamiyat, demokratiya, siyosat, norma

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda.

Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini ifoda etishi jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlari konstitutsiyamizda belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 32-moddasida O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish, shuningdek davlat

organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun belgilanadi. Fuqarolar davlat hokimiyatini boshqarishda saylovlar va referendumlarda ishtirok etib siyosiy huquqlarini iroda etadilar. Bunday tartib bosh qomusimizning 34-moddasida belgilab qo'yilgan. "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot g'oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o'z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

2017 –yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 13- apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya orgnlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019- yil 9- yanvardag "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kun talablaridan biri o'quvchi yoshlarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlashning ahamiyati beqiyos katta. O'quvchilarda erkin fikrga ega qilish pedagoglarning eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir pedagog o'zining asosiy e'tiborini quydagilarga qaratishi lozim: O'qitish jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qila olish; Darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar faolligini oshirish; O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish; - Davlat va huquq asoslari darslariga o'quvchilar qiziqishini o'stirish. Hozirgi kunda

o'quvchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini muntazam egallab borishlariga erishish o'quvchining muxim vazifalaridan xisoblanadi.

Bu vazifani o'quvchilarning mustaqil ishlarisiz hal etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berish lozim. O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishiiig metodik usullari xilma- xildir. Mustaqil ish sinfda va uyda sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham bajariladi. O'qituvchining vazifasi sinf o'quvchilarining ish faoliyati ustidan nazorat qilish, ular mustaqil ishni ongli bajarishlariga erishishi lozim. O'qituvchining rahbarlik roli shunga qaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi dars jarayonida u yoki bu masala yuzasidan fikrmuloxazalar yuritsin, o'ylab ko'rsin, o'z fikrini bayon qilsin, xulosalar chiqarsin.

O'quvchi dars jarayonida mustaqil holda izlanadi, fikr yuritadi. Eng muhimi mustaqil fikrlashga o'rganadi. O'qituvchi o'quvchi fikrini tinglashi, so'ngra esa uning kamchiliklarini muxokama qilish jarayonida sinf o'quvchilarini bahsga chorlashi yaxshi natija beradi. Fikr - muloxaza bahs jarayonida tug'iladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarni bahsga chorlash ularni rag'batlantirib turish, o'quvchilarni cho'chimay o'z fikrini ochiq aytishga, erkin fikr bildirishga, o'z fikrini asoslab berishga - ijodiy fikrlashga olib keladi. Huquqiy bilim olgan shaxs o'z bilimini hayotda amaliyotda ishlata bilish, tadbqiq eta olishi kerak. Masalan, bunday shaxs inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari , burchlari bo'yicha o'rganganlaridan hayotda foydalana olish, qonun asosida o'zini himoya qila olishi lozim³⁵. Demak ,bugungi o'quvchilar ertaga huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida jamiyatning faol a'zolariga aylanadilar. Shunday qilib, dunyoqarashning vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan ana shu malakalarni takomillashtirib borish o'z-o'zidan o'quvchida erkin fikrlash qobiliyatining shakllanishiga olib keladi. Maktab davri shaxsning shakllanishi jarayoni kechayotgan bosqich hisoblanadi. Shu davrda o'z fikrini erkin aytishga, o'z qarashlarini himoya etishga odatlanmagan. Bizning vazifamiz, har bir o'quvchiga to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishni o'rgatish, huquqiy ongini rivojlantirish hamda qonunlarga hurmat nazari bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent TDYU, 2018
2. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: “Adolat”, 2018
3. Abdukamol Rahmonov. “Yuksak huquqiy madaniyat- demokratik jamiyat poydevori”. // Huquqshunos, 2019, №1.